

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNING IJTIMOYIY XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Latipova Ferangiz Lochin qizi

Osiyo xalqaro universiteti magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabga tayyorlov guruhlarida bolalarning ijtimoiy xususiyatlarini shakllantirishning samarali metodlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy xususiyatlarni rivojlantirishning psixologik va pedagogik asoslari, bolalarning muloqot madaniyati, hamkorlik ko'nikmalari va ijtimoiy moslashuv jarayonlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy xususiyatlar, maktabga tayyorlov, pedagogik metodlar, kommunikativ ko'nikmalar, o'yin texnologiyalari, hamkorlik, moslashuv.

Abstract: This article analyzes the effective methods of forming the social characteristics of children in school preparation groups. The psychological and pedagogical foundations of the development of social characteristics, children's communication culture, cooperation skills and social adaptation processes are discussed.

Key words: social characteristics, school preparation, pedagogical methods, communicative skills, game technologies, cooperation, adaptation.

Kirish

Maktabga tayyorlov davrida bolalarning ijtimoiy xususiyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar shu bosqichda muloqot qilish, jamoada ishlash, o'z his-tuyg'ularini boshqarish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Ushbu jarayon samaradorligi pedagogik yondashuvlar va metodlarga bog'liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, ularning ruhiyat, shaxsiy qobiliyatlari, intilish va ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik goyalariga sodiq holda voyaga yetib borishini ta'minlash, ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablariga muvofiq maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi asosida amalga oshiriladi. Har bir oila barkamol avlodni tarbiyalash uchun qayg'urishi lozim. Shu bois «Ta'lim to'g'ri sida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning asosiy omili bo'lgan kadrlarni tayyorlash borasidagi eng zarur tadbirlar tizimi belgilab berildi. Sog'lom avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustuvor yo'nalishidir. Hech kimga sir emaski, respublikada bolalarni maktabgacha ta'lim-tarbiya tashkilotlariga jalb qilish kam foizni tashkil qiladi. Bunday nomutanosiblik, bolalar maktab ostonasiga qadam qo'yan kundan boshlab ularning rivojlanish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlarini engilashga alohida e'tibor berilmoqda.

Davlat va jamiyat maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarni yagona talab asosida rivojlantirish vazifasini qo'ydi. Shunga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

davlat talablariga tayangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarga integral tarzda ta'lim-tarbiya berish maqsadida tayanch dasturlari taqdim etilmoqda. Bu tayanch dasturlari bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb etilmagan bolalarni ham rivojlantirish va yagona davlat talablari asosida maktabga tayyorlash imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni yakunida mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so'z bilan aytganda barkamol shaxsni voyaga etkazish asosiy maqsad qilib belgilandi. Bu o'zluksiz ta'lim tizimining ilk turi – maktabgacha ta'limga o'ziga xos yondoshuvni talab etar edi. Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, davlat va jamiyat hamda ota-ona zimmasiga uni sog'lom, aqlli, xush xulqli qilib tarbiyalash vazifasi qo'yiladi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomila orqali, so'ng ta'limiy faoliyatlar, o'yinlar, bilim berish orqali amalga oshiriladi. Bola har doim buyumlar, hodisalar orasida bo'ladi. Doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab ko'radi, nimagadir quloq soladi, shu tarzda bola dunyoni anglaydi. Tevarak-atrof buyum va narsalar bolalarining sezgi organlariga, analizatorlarga ta'sir etadi va sezgi hosil bo'ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi. Bolada aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, eng oddiy faoliyat usullari predmetlarini tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko'nikma, malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlarga bo'lib, bor bilimlarni chuqur egallab olishga yordam beradi. Pedagogika, psixologiya fani aqliy tarbiya vazifalarini samarali hal etish birinchi navbatda bolaning imkoniyatlarini to'g'ri foydalanishni, ikkinchi tomondan bola organizmining charchashiga sabab bo'ladigan ortiqcha zo'riqish bo'lmasligi kerak degan fikrni ilgari suradi. To'g'ri tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'la qonli aqliy rivojlanish ro'y beradi. Shu sababli pedagoglarning vazifasi muayyan maqsadni ko'zlab, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoitni yaratish bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali so'ng ta'limiy faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli kattadir. Ijtimoiy xususiyatlarni shakllantirish jarayoni quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi:

O'yin texnologiyalari – Bolalar orqali ijtimoiy rollarni sinab ko'rish, o'zini tutish qoidalarini o'rganish.

1. **Kommunikativ metodlar** – Bolalarni muloqotga jalb etish, suhbat va hikoyalash orqali ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish.
2. **Hamkorlik metodlari** – Guruhli topshiriqlar, birgalikda muammolarni hal qilish mashg'ulotlari.
3. **Ijtimoiy-emotsional rivojlanish metodlari** – Hissiyotlarni anglash va boshqarish bo'yicha mashqlar.
4. **Rol o'yinlari** – Jamiyatda tutadigan o'rin va mas'uliyatni tushuntirish.

Metodlar

Tadqiqot davomida kuzatish, eksperiment, pedagogik diagnostika, suhbat va test metodlaridan foydalanildi.

Tavsiyalar

1. Maktabga tayyorlov guruhlarida o'yin metodlariga ko'proq e'tibor qaratish.

2. Bolalar o'rtasida muloqotni rivojlantirish uchun suhbat va hikoya qilish texnikalarini qo'llash.
3. Guruh ishlarini tashkil etish orqali bolalarni birgalikda ishlashga o'rgatish.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar qo'llangan bolalar o'zaro muloqotda faolroq bo'lib, ijtimoiy muhitga tez moslashadi.

Xulosa

Maktabga tayyorlov guruhlarida bolalarning ijtimoiy xususiyatlarini shakllantirish uchun pedagogik metodlarni to'g'ri tanlash va qo'llash muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ, hamkorlik va o'yin metodlari bolalarning ijtimoiy rivojlanishini jadallashtirishga yordam beradi. Kelgusida tadqiqotlarni yanada kengaytirish va yangi metodlarni sinovdan o'tkazish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. IJTIMOIIY, A. J. M. Y. B. RIVOJLANISH: Jumayeva Malika Aliyevna Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал.*–2023, 2, 174-179.
2. Toymurodov, A. (2023, December). MODERN INTERPRETATION OF PSYCHODIAGNOSTICS AND PSYCHOCORRECTION OF EXTREME SITUATIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 5, pp. 71-79).
3. Toymurodov, A. (2023). BASICS OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICES TO MILITARY PERSONNEL. *Академические исследования в современной науке*, 2(24), 148-152.
4. Shuhratovich, T. A. (2025). PSIXOLOGIK TESTLAR TURLARI VA ULARNI QANDAY QO'LLASH. *Modern digital technologies in education: problems and prospects*, 2(1), 8-15.
5. Abdurahmon, T. (2025). BOLALAR PSIXOLOGIYASINI O'RGANISH ULARNING RIVOJLANISH JARAYONLARI. *Modern digital technologies in education: problems and prospects*, 2(1), 16-21.
6. Abdurahmon, T. (2025). STRESSNI EKSPERIMENTAL TAHLIL QILISH. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 51-56.
7. Abdurahmon, T. (2025). XOTIRA VA ESLAB QOLISH JARAYONLARINI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 57-62.
8. Abdurahmon, T. (2025). PSIXOLOGIYADA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINI EKSPERIMENTAL TADQIQ QILISH. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 1-7.
9. Abdurahmon, T. (2025). PSIXOLOGIYADA NEYROEKSPERIMENTLARNING AHAMIYATI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 14-20.
10. Abdurahmon, T. (2025). KOGNITIV PSIXOLOGIYA INSONNING ONG JARAYONLARI. *New modern researchers: modern proposals and solutions*, 2(1), 8-13.